



Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 1998-8362-7345-00bc-2fb7-0698-4536
Хужжат яратилинган сана: 2022-05-05
Ариза рақами: 50519434

Хужжат берилган: 92-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 202624553

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Qashqadaryo viloyati qurilish
bosh boshqarmasi бошлиғи
Shaymardonov Rasul
Maxmadaminovich
05.05.2022 08:31

**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ
ТОПШИРИҒИ**

05.05.2022 08:31 й.
1710-1710405-41588 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	92-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI binosini bo'sh yer maydonidan 2 qavatli faollar zali binosi.
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Qo'shhovuz MFY Qo'shhovuz ko'chasi 1-uy
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	92-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бoshқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Qashqadaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни
1	Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар	ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH TOPSHIRIG'I QO'YIDAGILAR ASOSIDA BERILGAN Arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqarilishi uchun asos bo'lgan xujjatlar: a) "Davlat xizmatlari markazi"ning xati. b) Shahrisabz shahar qurilish bo'limining ob'ektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilishga berilgan 2022 yil 15 apreldagi 1710405-46875-sonli ruxsatnomasi. v) Davlat ekalogik ekspertiza xulosasi. d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 18 maydagi 370-sonli qarori.

2	<p>Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тутган ўрни</p>	<p>Joyning bosh rejasini tuzishda qo'yidagilar bajarilishi zarur: Joyning bosh rejasini ShNQ 2.07.01-03 Shaxarsozlik, shaxar va qishloq aholi punktlari xududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish talablariga rioya qilgan holda joylashtirilsin. Binoning asosiy fasad ko'rinishini shimol tomonga qaratib loyihalansin. Yer maydoni xududidagi yomg'ir, qor suvlarini hamda yig'iladigan suvlarning ifloslanmasdan chiqib ketishi ishlab chiqilsin. Xududning issiq iqlimda joylashganligini hisobga olib, hamda yong'inga qarshi kurash, tabiatni muxofaza qilish, sanitariya normalariga rioya qilgan holda binoning bosh rejasi tayyorlansin. Binoni bosh rejasini tayyorlashda SanQM 0246-08 sanitariya va SHNQ 2.01.02-04 bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinsin. Bosh reja xujjatlarini ishlab chiqishda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida manzarali igna bargli daraxtlar, mavsumiy ko'rkamlilik darajasi bor bo'lgan gullar o'tkazilishi inobatga olinsin. Bosh reja loyiha eskizlari qurilish bo'limiga loyiha instituti tomonidan loyiha ishlarini bajarilishidan oldin taqdim etilsin.</p>
3	<p>Лойиҳалаштириладиган объект худудининг табиий-иклим кўрсаткичлари</p>	<p>Yer maydonining iqlimi va fizik-geologik holatlari: Yer maydoni IV iqlimiy xududda joylashgan bo'lib, xududning iqlimi tez o'zgaruvchan, keskin kontenental bo'lib, qishi sovuq, yozi issiq hisoblanadi. Yozdagi eng issiq xarorat 450 S, qishdagi eng past xarorat 150 S dan iborat. Shamol yil davomida janubiy sharqiy, va janubiy sharq yo'nalishida esadi. Yer maydonini relefi tekis, yer osti suvining balandligi 15-20 metrni tashkil qiladi. Yer maydoni 8-9 (sakkiz-to'qqiz) ballik zilzilaviy xududda joylashgan bo'lib, QMQ 2.01.03-96 (seysmik tumanlarda qurilish)ga alohida e'tibor qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi). Ob'ektni loyihalashtirish jarayonida seysmik, erroziya (emirilish), seldan saqlash, suv va shamol erroziyasidan saqlanish tadbirlari belgilansin.</p>
4	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги</p>	<p>Yer maydonining topotasviri va injenerlik geologiyasi haqida ma'lumot: Topotasvir va geologiya ishlari QMQ 2.01.01-94 ga belgilangan tartibda loyiha tashkiloti tomonidan bajartirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.</p>
5	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот</p>	<p>Ajratilgan yer maydonining chegaralari: 92-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI binosini bo'sh yer maydonidan 2 qavatli faollar zali binosi quyidagicha chegaralanadi: Umumiy yer uchastkasi 0,71 ga, amalda 0,65 ga qurilish maydoni 570,65 kv.metrni tashkil qiladi.</p>
6	<p>«Қизил чизиқлар ва белгилар»</p>	<p>Qizil chiziqlar va loyihaviy qizil balandlik belgisi to'g'risida ma'lumot: Ob'ektni loyihalashtirishda yer maydonining janub tomonidan o'tgan yo'lning loyihaviy kengligi yo'lning ko'ndalang kesimidan aniqlansin. Yo'lning loyihaviy qizil hamda qurilish chiziqlari e'tiborga olinib loyiha amalga oshirilsin. Bino qizil 0 balandlik belgisi yer maydonining atrofida qurilgan binolarning poydevoriga nisbatan olinsin.</p>

7	Архитектура талаблари	Loyihani ishlab chiqishda: a) harakatdagi shaharsozlik me'yor va qoidalarga amal qilinsin; b) aholi punktining tasdiqlangan bosh rejasiga va uning tegishli qismining batafsil rejalashtirish loyihasiga qat'iy rioya etib, ob'ekt atrofidagi mavjud binolarga bog'langan xolda yagona arxitektura ko'rinishi (ansambli) tashkil etish lozimligi inobatga olinsin; v) ob'ektni rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin ayrim holatlarda (buyurtmachining talabiga binoan yoki tashqi ko'rinishidan avariya xolatining alomatlari mavjud bo'lganda) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan loyiha va boshqa tashkilotlarning ob'ektning xolati (konstruksiyalarning chidamlilik) bo'yicha xulosasi olinsin; g) ushbu arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq buyurtmachi tomondan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda alohida muxim ob'ektlar bo'yicha viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshiriqlariga xamda 1:500 nisbatdagi topoxaritada tasdiqlangan chegaralariga amal qilinsin; d) ob'ektning 1:500 nisbatdagi bosh rejasini loyihalashtirishda loyiha tashkiloti tomonidan qayta iqtisoslashtirilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino tushirilgan xamda ob'ekt atrofida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan, ob'ektga kirish-chiqish yo'llari va avtomobil to'xtash joylari tashkil etilishi nazarda tutilsin; e) ob'ektning balandligi 1 qavatli bo'lib (ushbu kichik band faqat aholi punktining bosh rejasi va uning qismlarini batafsil rejalashtirish loyihalari xamda qurish loyihalari mavjud kollarda to'ldiriladi); j) "hududiy foydalanish balanslari" inobatga olingan holda joylashtirilishi; obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari; transport vositalarining to'xtash va saqlash joylari; transport va piyodalar xarakati yunalishlari ko'rsatilishi: kichik arxitekturaviy shakllarning aks ettirilishi: tungi yoritgichlar va reklama vositalari: Ob'ektning loyixalashtirish xujjatlari ishlab chiqilishida qo'yidagilarga qat'iy amal qilinsin.
8	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар	Loyihachining loyiha topshirig'iga muvofiq: a) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida buzilishga tushadigan bino va inshootlarga aniqlik kiritilsin; b) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino va inshootlardan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilsin.
9	Объектни босқичма-босқич қуриш	Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig'iga muvofiq qurilishni bosqichma-bosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda tutilishi mumkin. Kapital rekonstruksiya xisobidan qayta quriladigan ob'ektni loyihalash va qurilish bir bosqichdan iborat bo'lsin.
10	Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш	Loyihaning obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish qismida quyidagilar: a) ob'ektga igna bargli, manzarali va boshqa daraxtlar xamda butalar va gullar ekilishi; b) ko'kalamzorlashtirish xududlarining gazon o'tlari bilan qoplanishi; v) landshaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan xolda daraxtlarning qanday shakllarda bo'lishi inobatga olinsin.

11	Санитария-гигиена талаблари	Loyihalashtirishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilsin. Loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shartligi ko'zda tutilsin. Ob'ekt qurilishi uchun tanlangan yer maydoni oqib o'tuvchi kanal yoki mavjud bo'lgan taqdirda, loyihadagi suv yo'nalishi hamda suvning muxofaza etish masofalarini saqlash va qirg'oqlarni obodonlashtirish va mustahkamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olinsin.
12	Ёнғиндан сақланиш талаблари	Yong'indan saqlanish talablari SHNK 2.02.01-04 shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalashtirilsin.
13	Экология талаблари	Ekologiya talablari haqida: O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni atrof muxitni muhofaza etish to'g'risida"gi qonuniga va Qashqadaryo viloyati tabiatni muxofaza qilish qo'mitasining xulosasi talablari asosida loyihalashtirish ishlari amalga oshirilsin. Loyihalashtirish ishlari jarayonida qabul qilingan qurilish materiallari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan keng foydalanilishi shartligi ko'zda tutilsin. Shaxrisabz shaxar ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha inspeksiya sining ma'lumotnomasi.
14	Лойиҳани келишиш	Loyiha arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki davlat xizmatlari markazi orqali quyidagilar bilan kelishilsin: viloyat Qurilish bosh boshqarmasi xuzuridagi xududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi bilan tarixiy zonalarda, shu jumladan madaniy yodgorliklarning qo'riqlash zonalarida quriladigan ob'ektlarning hamda davlat ob'ektlarining loyihalari; bevosita viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan - boshqa ob'ektlarning loyihalari; Kelishish uchun elektron shaklda qo'yidagi hujjatlar taqdim etilsin; 1) loyihaning arxitekturaga oid qismi (tushuntirish xati (tushuntirish xatida loyiha-smeta xujjatida yong'in xavfsizligiga, sanitariya-epidemiologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish qoidalariga rioya etish bo'yicha va boshqa yo'nalishlarda bajarilgan ishlar aks ettiriladi)); 2) bino va inshootning fasadlari, qavatlar rejalari, qurilish ob'ektining bosh rejasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha ishlari va investitsiya loyihalarini takomillashtirish uchun qo'shimcha choralar haqida" 2016 yil 22 yanvardagi 15-son qaroriga 2-ilovada (Murakkablik toifasi bo'yicha ob'ektlar klassifikatsiya) keltirilgan III toifalarga mansub ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlarini bevosita o'zlari sanitariya-epidemiologiya va yong'inga qarshi nazorat xizmatlari xamda ekologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish organlari bilan kelishiladilar; Qurilish xajmi 300 kub metr dan ortiq bo'lmagan ob'ektlarni bevosita o'zlari tuman (shahar) qurilish bo'limlari bilan kelishadilar.

15	Қўшимча талаблар	Loyiha tashkiloti loyihani kelishishi davomida viloyat Qurilish bosh boshqarmasi yoki uning xuzuridagi xududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Buyurtmachi o'z xoxishiga ko'ra qurilish ishlari tugagandan so'ng ob'ekt xududning ijro topotasvirini (er osti va yer usti muxandislik kommunikatsiyalari aks ettirilgan holda) bajarilishini ta'minlaydi va uning bir nusxasini viloyat qurilish bosh boshqarmasiga topshiradi. Loyihani ishlab chiqishda zilzilaga bardoshlik talablari inobatga olinsin.
----	-------------------------	---

Муҳандислик тармоқларига улаиш шартлари:

16	Ичимлик сув тармоғи	Ichimlik suvi va oqova suv ta'minoti Ob'ektni ichimlik suvi bilan ta'minlashda tuman "Suvoqova" korxonasi tomonidan berilgan texnik shartga asosan bajarilsin.
17	Оқава сув тармоғи (канализация)	Ichimlik suvi va oqova suv ta'minoti Ob'ektni ichimlik suvi bilan ta'minlashda tuman "Suvoqova" korxonasi tomonidan berilgan texnik shartga asosan bajarilsin.
18	Электр тармоғи	Elektrlashtirish. Ob'ektni loyihalashda elektr bilan ta'minlashda "Shaxrisabz shahar elektr ta'minoti korxonasi"ning texnik shartiga asosan bajarilsin.
19	Газ тармоғи	"Shaxrisabz shaxargaz filiali" tomonidan gaz tarmog'ini loyihalashtirish uchun berilgan texnik shartiga asosan bajarilsin.
20	Телефон алоқа тармоғи	Telefonlashtirish "Shaxrisabz telekommunikatsiya bog'lamasi" korxonasi tomonidan berilgan texnik shartga asosan bajarilsin.
21	Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи	Isitish tarmoqlari. Loyihalanadigan binoni issiqlik bilan ta'minlash individual tarzda bajarilsin.
22	Дренаж тармоғи	-

23	<p>Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкилотига қўйилаётган талаблар</p>	<p>Muxandislik tarmoqlarini loyihalashda qo'yidagilar inobotga olinsin: Muxandislik tarmoqlarini loyihalashtirishda ko'cha qirqim (profili), mavjud binolar va muxandislik tarmoqlari SHNQ bo'yicha e'tiborga olinsin hamda qo'yidagi SHNQ va QMQ lardan foydalanilsin: QMQ-2.04.01-98- Binolarning ichki ichimlik va oqova suv tarmoqlari. QMQ-2.04.02-97- Suv ta'minoti. QMQ-2.04.17-98- Elektr tarmoqlari. QMQ-2.04.07-99-Isitish tarmog'i. Tarmoqni yer ostiga yotqizish chuqurligi va yer yuzasidagi yo'nalishi. Muxandislik tarmoqlarini yer ostiga yotqizish chuqurligi shaxarsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalansin va trassa loyiha asosida aniqlansin. Muxandislik tarmoqlarini loyihasini barcha aloqador tashkilotlar bilan kelishib olish shart. Muxandislik tarmoqlari yuzasidan umumiy ko'rsatmalar. Muxandislik tarmoqlarini loyihasini tuzayotganda qo'yidagi talablarni e'tiborga olish zarur. 1. Loyihagacha bajarilgan topografik chizmalar sinchiklab ko'rib chiqilishi va amaldagi yer osti muxandislik tarmoq va inshootlar e'tiborga olinishi lozim. 2. Barcha muxandislik tarmoqlarining loyixasi o'z borasidagi QMQ qoidalar talablaridagi me'yorga javob berishi kerak, ya'ni: - 0,4-750 kV kuchlanishli elektr toki uzatish tarmoqlari uchun yer ajratish me'yorlari QMQ 2.10.08-97. -Elektrotexnik moslamalar QMQ 3.05.06-97. -Iqlimiy va fizikaviy geologik ma'lumotlar QMQ 2.01.01-94 -Suv ta'minoti: Tashqi tarmoqlari va inshootlar:QMQ 2.04.02-97. -Issiqlik tarmoqlari:QMQ 2.04.07-99. -Gaz ta'minoti. Loyixa me'yorlari QMQ 2.04.08-96. -Qozonxona qurilmalari QMQ 2.04.13-99. -Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi SHNQ 2.10.02-04. -Aloqa uzatish tarmoqlari uchun yer ajratish me'yorlari: QMQ 2.10.06-97 . - QMQ 2.07.3-96 inshoot atrofini o'rash. -Avtomobil yo'llari QMQ 3.06.03-96. -Binolar ichki ichimlik suvi tarmog'i va suvoqova tarmoqlari: QMQ 2.04.01-98. 3. Buyurtmachi tomonidan loyiha xujjatlari asosida qurilish qurib bitkazilib foydalanishga topshirilganda muxandislik tarmoqlari bo'yicha naturada bajarilgan ishlarning chizmalari viloyat arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi planshetiga tushirilishi uchun taqdim etilishi shart.</p>
----	--	---

24	Қўшимча талаблар	<p>QO'SHIMCHA TALABLAR. Loyixa ishlarini bajarishda amaldagi "Qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ)" va shu jumladan teplo texnika, insolyatsiya, zilzila (antiseysmik talablar)ga bardoshlilik xamda yong'indan muxofaza etish talablari inobatga olinsin. Bosh reja chizmalari "Qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ)" bo'yicha tafsilotlar plani, 1:2000 nisbatdagi rejalash chizmasi, rel'efni tashkil etish plani, yer maydonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish plani. "Qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ)" bo'yicha arxitektura-konstruktsiyaviy ishlar bo'yicha qismlarining chizmalari, qavatlar va qavatlardagi xonalarning eksplikatsiyasi, santexnika jihozlari tushirilgan planlari, loyixadagi xarakterli konstruktsiyalarning qirqimlari, barcha ko'rinishdagi fasadlar, tomlarning plani, poydevorlar plani, poydevorlar qirqimi, arxitektura xususiyalarining batafsil va tugun (uzel) ko'rinishlari. Muhandislik tarmoqlari ta'minotini loyihalashtirishda viloyat va tuman muxandislik tarmoqlari idoralari tomonidan taqdim etilgan texnik shartlarga asoslangan xolda ichimlik suvi, oqava chiqindi suvlari, ichki va tashqi elektr tarmoqlari, gaz xamda aloqa ta'minoti ishlab chiqilishini ta'minlash. Buyurtmachiga qo'yiladigan talablar. 1. Muxandislik tarmoqlari topotasviri xandak va chuqurlarni ko'mishdan oldin bajarilishi shart. 2. Topotasvirni tuman arxitektura va qurilish boshqarmasiga topshirish talab etiladi. 3. Muxandislik tarmoqlarini yo'llardan kesib o'tadigan joylarini kurishdan oldin, mahalliy hokimiyatdan tegishli ruxsatnoma olinishi talab etiladi.</p>
25	Архитектура режалаштириш топширигининг амал қилиш муддати	<p>Ushbu «Arxitektura - rejalashtirish topshirig'i» 2023 yil aprel oyigacha haqiqiy hisoblanib muddati Qashqadaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi tomonidan qayta uzaytiriladi.</p>

Шахрисабз тумани ер тузиш ва кўчмас мулк кадастри давлат корхонаси муҳандиси: *А. Вафоев*
 (фамилия, исми, отаси/онаси исми)

Ер участкасига бўлган ҳуқуқ эгаси *Мақтаб директори Б. Самиев*
 (фамилия, исми, отаси/онаси исми)

Чегаралаш ер участкаларига

1. _____ (фамилия) _____ (фамилия, исми, отаси/онаси исми)

2. _____ (фамилия) _____ (фамилия, исми, отаси/онаси исми)


3. _____ (фамилия) _____ (фамилия, исми, отаси/онаси исми)

4. _____ (фамилия) _____ (фамилия, исми, отаси/онаси исми)

2016 йил « _____ » июн куниндаги
 Ер участкаси чегараларини аниқлаш ва келишим далолатномасига илова



Шахрисабз тумани Кушхувуз МФЙ Кушхувуз кучаси №1уйда
 Жойлашган 92 – сонли мактабнинг топографик тасвири
 М 1:1000



АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИНИ ИШЛАБ ЧИҚДИ:

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	Shomurodov Asqadjon Axmedovich
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	Murodova Ra'no Yusupovna

ШАЙМАРДОНОВ РАСУЛ МАХМАДАМИНОВИЧ

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

9417

